

JABBOROVA O.
TOSHPOLATOVA D.

114.17.
J-13.

ART TEXNOLOGIYA
VA KREATIVLIK



114.17.201.
J-13.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Jabborova O., Toshpo'latova D.

ART TEKNOLOGIYA VA KREATIVLIK

(oliy pedagogik ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun o'quv qo'llama)

-14041/51-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq – 2023
«Yangi chirchiq book» nashriyoti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

Jabborova O., Toshpo'latova D. / ART texnologiya va kreativlik. /
O'quv qo'llanma. - Chirchiq: «Yangi chirchiq book», 2023. – 136 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy pedagogik ta'lim muassasalari 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda yangi o'quv fani "ART texnologiya va kreativlik"ning nazariy xususiyatlari, didaktik asoslari va amaliy metodikasi masalalari tahlil etilgan. ART inglizcha atama bo'lib, so'z san'ati, musiqa san'ati, tasviriy san'at va texnologik yondashuvlarning uyg'unligiga asoslangan san'at tushunchasini anglatadi. Shu sababli davlat ta'lim standartlari va malaka talblariga binoan mazkur o'quv qo'llanmada ARTtexnologiya va kreativlikning so'z, musiqa va tasviriy san'at turlari tahlil qilingan. O'quvqo'llamani tayyorlashda o'qitishning kredit-modul tizimi talablariga asoslanilgan.

MAS'UL MUHARRIR:

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, pedagogika fanlari doktori, professor

TAQRIZCHILAR:

Kuchlinov Abdumalik Yo'ldoshevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent v.b.

Tilyakova Mavjuda Ashurovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023 yil 27 martdagi 68-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya
etilgan.

ISBN 978-9943-9513-8-9

© Jabborova O. boshq., 2023
© «Yangi chirchiq book», 2023

Mundarija

1-MODUL: "So'z san'ati-ART texnologiya va kreativlikning asosi"	4
1-mavzu: so'z san'ati asoslari	4
2-mavzu: Ona tili – boshlang'ich sinflarda so'z san'atining asosi	15
3-mavzu: O'qish – boshlang'ich sinflarda so'z san'atining omili	24
2-MODUL: "Musiqa san'ati – ART texnologiya va kreativlikning omili"	33
4-mavzu: Musiqa san'ati asoslari	33
5-mavzu: Musiqa madaniyati – boshlang'ich sinflarda musiqa san'atining omili	43
6-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijrochilik ko'nikmasini shakllantirish	55
3-MODUL: «Tasviriyvaamaliysan'at – ART texnologiya va kreativlikning negizi»	62
7-mavzu: Tasviriy san'at asoslari	62
8-mavzu: Tasviriy san'at boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART – kreativlik ko'nikmasini shakllantirish asosi	68
9-mavzu: Tasviriy san'at bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijrochiy layoqatini shakllantirish	76
10-mavzu: Amaliy san'at boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART – kreativlik ko'nikmasini shakllantirish omili	83
11-mavzu: Boshlang'ich sinflarda ART texnologiya va kreativlikning metodlari	89
12-mavzu: ART texnologiyasivakreativlikdamaliyto'garaklar	98
13-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqatini shakllantirish	107
14-mavzu: ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha o'quvchilarining individual mashg'ulotlari	114
15-mavzu: Boshlang'ich sinflarda ART texnologiya va kreativlikni o'zlashtirganlik darajasini baholash	121
Mustaqil ta'lim uchun mavzular va topshiriqlar	127
Tavliya etiladigan adabiyotlar	129
Glossariy	130

1-MODUL: "SO'Z SAN'ATLARI TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING ASOSI"

1-MAVZU: SO'Z SAN'ATI ASOSLARI

REJA:

1. So'z san'ati omillari
2. "Ona tili" so'z san'atining asosi sifatida
3. "O'qish" so'z san'atining amaliy omili sifatida
4. So'z san'atini o'rganishning ahamiyati

Kalit so'zlar: san'at, so'z, asos, til, nutq, o'quvchi, badiiylik, ong, bilim, ko'nikma.

So'z san'ati omillari. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida gumanitar, tabiiy va aniq fanlarni uyg'un o'qitish konsepsiyasiga asoslaniladi. Shu jihatdan gumanitar fanlarning keng ko'lamligi, uning inson ongi va ahloqiga pedagogik ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalada asrlar davomida ta'lim oluvchilarga gumanitar fanlarning asosiy negizlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka berishga amal qilib kelinmoqda. Shu ma'noda gumanitar fanlarning muhim negizlaridan biri *so'z san'atidir*.

So'z san'ati – bu so'z vositasida fikrni badiiy ifodalash bo'lib, unda inson va jamiyat hayoti obrazlar vositasida tasvirlanadi.¹ So'z san'ati til va adabiyotning uyg'unlashgan shakli bo'lib, unda badiiyat qonuniyatlariga asoslaniladi. Uning asosiy ob'yekti inson ruhi, ongi, ahloqi va hayoti hisoblanadi. Mazkur san'at vositasida insonning ideal orzu-lari, baxiga intilish xarakatlari va hayotining mazmuni ifodalanadi. Shu sababli so'z san'atining inson hayotidagi o'rni beqiyos

¹Karant. Adabietshunoslik lugati. – Toshkent, 2005

bo'lib, uning vositasida insonning odamiylik madaniyati rivojlantiriladi. Pedagog o'qituvchining fikrga kelishicha, so'z san'ati inson hayotida umrbod hamrohlik qiladi.² Haqiqatan ham inson yoshiigidanoq so'z san'atining devochasi bo'lgan alla (inglab) voyaga yetadi. Aynan allada musiqiylik, ohang, mazmun va obrazlilik muajassam bo'lgan. Shu sababli alla so'z san'atining ilk ko'rinishi sifatida (insonning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi).

So'z san'atining muhim omillari mavjud. Bunday omillarning asosiy-lari quyidagilardan iborat:

- 1) tili imkoniyatlaridan foydalanishi;
- 2) obrazlilik;
- 3) ma'naviy ta'sir.

Mazkur omillardan asosiy si *tilidir*. Unga ko'ra, har bir xalq o'z ona tilisining imkoniyatlari vositasida fikrini, orzu-umidlari va ideal maqsadlarini ifodalaydi. Bu borada misol uchun, ona tilimiz o'zbek tilining imkoniyatlari kengligini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, "yig'lash" so'zining 30 dan ortiq turlari mavjud. "ingirmoq", "yig'lamoq", "nola qilmoq", "ko'z yoshi to'kmoq" kabilar shular jumlasidandir. So'zlarning keng ma'noga ega bo'lishi so'z vositasida insonga ijobiy ta'sir ko'rsatishning imkoniyatlari keng hisoblanadi. Bunday imkoniyatlar har bir tilga xos bo'lib, u tilda ham ohang, musiqiylik, ruhiy ta'sir omillari kabilar keng bo'ladi. Shu sababli pedagog olimlar ona tili vositasida insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berishadi. Misol uchun, dunyoda 2000dan ortiq tili mavjud bo'lsa, ularning har biri o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va har bir xalqda ularning mavjudligini ta'kidlash lozim.

So'z san'atining muhim omillaridan yana biri *obrazlilikdir*. Unga ko'ra, fikr har bir narsaga qiyoslanib ifodalanadi. Misol uchun, O'zbekning "O'zbekiston" shu riddagi quyidagi satrlarga e'tibor bering:

²Григорьев Л. Е. Искусство слова и младший школьник. // Искусство в жизни детей. Сборник. – М.: "Просвещение". 1991. – С.102-125

Bir o'lkani tuprog'ida oltin gullaydi.

Bir o'lkani sal ko'rmasa Quyosh sog'inar.

E'tibor berilsa, bu o'rinda "oltin gullaydi" iborasi bilan Yurtimizning go'zalligi va maftunkorligi ifodalangan, "sal ko'rmasa Quyosh sog'inar" iborasi bilan esa ona Vatanimizning serquyosh o'lka ekanligi ta'kidlangan. Mana shu satrlar insonning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kishida Vatan bilan g'ururlanish hissinu uyg'otadi. Shu sababli so'z san'atida obrazlilik eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, onalar Makkaga, otalar qiblagga, opalar bahorga, singillar chamanzorlarga qiyoslanadi. Buning natijasida inson ruhiyatiga o'ziga xos ko'tarinkilik, hurmat, ehtirom va izzat-iktrom tuyg'ulari paydo bo'ladi.

So'z san'atining navbatdagi omillardan biri *mazmundir*. Unga ko'ra, til vositasida obrazli shaklda ifodalanayotgan fikr chinakam mazmunga ega bo'lishi kerak. Shu jihatdan mazmunsiz fikr insonning ongi va ruhiyatiga ta'sir qilmaydi. Masalan, "shamol esdi" iborasi "shamol g'ir-g'ir esdi" deb ifodalansa mazmun kuchayadi. Mazkur o'rinda ta'kidlash lozimki, mazmun chiqur va haqoniy bo'lsa, uning shakli ham nafis bo'ladi. Ko'p hollarda nasriy asarlarda ham mazmun va shaklning uyg'unligiga e'tibor beriladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan olingan quyidagi lavhaga e'tibor bering:

Homid Otabekdan Hasanaliqga ishora qilib so'radi:

- Bu kim?

Otabek Hasanaliqning uzog'lashib ketishini kutib turdi-da, sekin dedi:

- Qulimiz.

E'tibor berilsa bu o'rinda, quyidagi mazmun berilgan: birinchidan, Homidning salbiy xarakteri ifodalangan, chunki u Hasanaliqning oldida uning kim ekanligini so'raydi; ikkinchidan, Otabekning odobi va madaniyati ekanligi ifodalangan, negaki u Hasanaliqning uzog'lashib ketishini kutib turib javob berdi, agar u Hasanaliqning oldida qulimiz deb javob berganida odobsiz hisoblanar edi;

uchinchidan, yozuvchi odam qul bo'lsa ham hurmatga sazovor ekanligini ifodalagan. Mana shunday mazmun vositasida so'z san'ati insonni tarbiya qiladi va ideal qahramonlar vositasida ularni yaxshilikka undaydi.

E'tibor berilsa, so'z san'atining til, obrazlilik va mazmunlilik omillari insonni tarbiyalashning muhim asoslari ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu sababli milliy va jahon pedagog olimlari so'z san'atining mazkur imkoniyatlari vositasida ta'lim olovchilarni tarbiyalash masalasiga asosiy e'tiborni qaratishadi.

Ona tili so'z san'atining asosi sifatida. Har bir xalqning so'z san'atida Ona tili asosiy negiz hisoblanadi. Chunki ona tilining inson ruhiyati va ongiga ta'siri ilmiy isbotlangan bo'lib, unga ko'ra, inson aynan ona tili vositasida ma'naviy shakllanadi. Uning natijasida ijtimoiy hayot va jamiyatda faollik ko'rsatadi. Bu borada so'z san'ati o'zining asoslariga ega bo'lib, ikki jihatdan muhim imkoniyatlarni beradi: birinchidan, ona tilining keng imkoniyatlarini namoyon qiladi va uning targ'ibotini amalga oshiradi; ikkinchidan, ona tilining lug'at boyligini kuchaytiradi. Shu jihatdan Ona tilining so'z boyligi shevalar va boshqa tillardan o'zlashtgan so'zlarni vositasida ko'payib boradi, bunda so'z san'ati muhim vazifani bajaradi.

Ona tili so'z san'atining asosi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) so'z boyligini (lug'atni) taqdim qiladi;

2) tasvirlash vositalarini beradi;

3) fikrni ikkinchi shaxsga yetkazadi.

So'z san'atining ona tili so'z boyliklaridan foydalanishida muhim qonuniyatlar mavjud. Unga ko'ra, tasvirlanayotgan fikr adabiy tilda bo'lishi va boshqaga bir xil tushunarli bo'lishi kerak. Shu jihatdan adabiy til ona tilining me'yoriylashtirilgan shaklidir. Masalan, "ona" so'zi adabiy til so'z boyligi hisoblanadi, uning shevalarda aya, oyi, ena kabi shakllari mavjud. Ba'zida ijodkorlar fikrining ta'birchanligini oshirish maqsadida shevalardagi bu kabi shakllardan ham foydalaniladi, biroq ularni ifodalashda adabiy til me'yoriylariga amal qiladi. Har bir xalqning ona tili keng so'z boyligiga ega va bunday so'zlarning bir necha